

BAXTLI SHAHZODA NEGA BAXTLI EDI?

O`rolova Dinora

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi

10-sinf o`quvchisi

Annotatsiya: Maqolada mashhur yozuvchi Oskar Uayldning “Baxtli shahzoda” ertagi o`qib tahlil qilindi. Unda haqiqiy baxt nima ekanligi, sof insoniy tuyg`ular, do`stlik, sevgi-muhabbat, yaxshilik kabi fazilatlar o`rganib chiqildi. Shu bilan birga yozuvchi ertak orqali davr haqida nimalarni ochib bergani tahlilga tortildi.

Kalit so`zlar: “Baxtli Shahzoda”, yaxshilik, baxt, boylik, jamiyat va davr, siyosiy tuzum.

Ertaklar yaxshilikka yetaklar. To`g`ri, bir necha yillar avval ertak o`qishni juda yaxshi ko`rardim. Biroq keyinchalik katta asarlarni o`qishni boshlaganimda ertaklar men uchun qiziq bo`lmay qoldi. Shunday qilib, ertak o`qimaganimga ancha bo`lgandi. Bir kun o`zining she`rlari va nasriy asarlaridan tashqari ajoyib uslubda yozilgan ertaklari bilan ham mashhur bo`lgan yozuvchi Oskar Uayldning “Baxtli shahzoda” ertagi qo`limga tushib qoldi. Uni o`qiganimda o`ziga xos samimiylik bilan yozilgan bu ertak nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham birdek ta`sirli va qiziqarli ekanini tushundim va bu menda o`zgacha taassurot qoldirdi.

Ertak haqida qisqacha bayon qiladigan bo`lsam, u shahar o`rtasida bunyod qilingan baxtli shahzoda haykali tasviri bilan boshlanadi. Haykal hamma yog`i oltin bilan qoplangan edi va shaharchadagi hamma insonlar ushbu haykalga havas qilar va undan ilhomlanishardi. Kunlar soviy boshlaganda qamishga oshiq bo`lib Misrga uchib ketayotgan do`stlaridan qolib ketgan bir qaldirg`och vaqt o`tib undan zerikishni boshlaydi va uni sevmasligini anglab yetadi. Misrga qarab yo`lga chiqqan qaldirg`och yo`lda bir shaharda to`xtaydi va u yerdagi Baxtli Shahzoda haykalini makon tutib u bilan do`stlashadi. Haykal qaldirg`ochdan bir kecha qolishini iltimos qiladi va uning yordamida ko`plab odamlarga o`zining qimmatbaho a`zolari orqali yordam beradi. So`ng qaldirg`och ham ketish fikridan qaytadi va haykal bilan birga qoladi. Ammo u qishning sovug`iga bardosh berolmay bir kuni jon beradi. Qaldirg`och o`lganida Baxtli Shahzodaning ham qalaydan yasalgan yuragi ikkiga bo`linib ketadi. Qimmatbaho toshlari va oltinlari bilan birga avvalgi husnini ham yo`qotgan haykal shahar hokimi tomonidan buzib tashlanadi va boshqa haykal qurishga qaror qilishadi.

Ertakning bosh maqsadi insonlarni yaxshilik qilishga undash bo`lsa-da, unda jamiyatdagi ko`plab illatlar tanqid ostiga olingan. Shu bilan birga, yozuvchi ertakda XIX-XX asrlarda Buyuk Britaniya tarkibiga kirgan Irlandiyadagi siyosiy tuzum hamda ijtimoiy ahvolni ham qalamga olgan. Yozuvchining bermoqchi bo`lgan g`oyalaridan

biri insonlar baxtni boylik, o`yin-kulgudan iborat deb o`ylashlari edi. Buni “hayotdan alamzada bo`lgan bir odam”ning nutqida ko`rishimiz mumkin: “Qarang-a, dunyoda to`la baxtga erishgan kimsa ham bor ekan, bu juda quvonarli hol!”¹ Uning istehzo va alam bilan aytgan ushbu gaplari jamiyatdagi ko`pchilik insonlar baxtsiz ekanligiga ishoradek go`yo. U bu gaplarni faqatgina Shahzodaning oltin bilan qoplangan gavdasi, zabarjaddan qilingan ko`zlari va qilichidagi qimmatbaho la`lga qarab aytgan edi. O`zi Baxtli Shahzoda rostdan ham baxtlimidi? Bunga qahramonning o`zi shunday javob beradi: “Chindan ham baxtli edim, agar baxt o`yin-kulgidangina iborat bo`lsa, albatta”. Shahzoda tiriklik vaqtida saroyda yashab vaqtini o`yin-kulgi bilan o`tkazar va atrofidagi narsalarning hammasi go`zal edi u uchun. O`zi bu haqda: “Bog`ni baland devorlar o`rab turardi; uning ortida nimalar borligini so`rash esa xayolimga ham kelmasdi”.-deydi. Demak, u shunchaki o`zining muammolarsiz hayoti bilan ovvora bo`lib atrofidagi, tashqi olamdagi insonlarning g`am-anduhli hayotidan bexabar qolgan edi. Bu bilan yozuvchi kayf-u safoga berilgan, o`z saroylarida faqat o`yin-kulgu, hashamdorlik bilan ovora bo`lib oddiy xalq hayoti bilan qiziqmaydigan, hatto devorning ortida nima borligini xayoliga ham keltirmaydigan qirollarni tanqid qilgan. “Mana, endi o`lganimdan so`ng, meni shunday yuksak joyga o`rnatishdiki, bu yerdan turib shahrimning hamma g`urbat va ayanchlarini yaqqol ko`rib turibman va garchi yuragim endi qalaydan bo`lsa ham, yoshimni tiyib turolmayapman”. Yozuvchi ertakdagi qahramonlarning xarakteri, ularning ichki dunyosini qahramon nutqi orqali ochib beradi. Baxtli Shahzodaning yuqoridagi nutqida ham uning sof va ezguliklarga to`la qalbi, beg`ubor va insoniylikka to`la xarakteri yaqqol aks etadi. Baxtli Shahzoda shunday fazilatlariga ega ekan, endi ertakning yana bir bosh qahramoni qaldirg`och qanday obraz edi? Dastavval, u go`zal kapalakning ortidan quvlab bir qamishzorga duch kelib qoladi va bir qamishga oshiq bo`ladi. Shu qamishzor bilan ovunib to`dasidan ham qolib ketadi. Shu yerda Qaldirg`ochning go`zallikka, tashqi qiyofaga oshnoligi seziladi. Uning shaharga kelganida aynan oltin haykalni o`ziga boshpana qilib tanlashi ham buni isbotlaydi. Xatto uning: “Meni kutib olish uchun shaharda tayyorgarlik ko`rilgan bo`lsa kerak, deb o`ylagandim”.-degan gaplaridan uning xarakterida birozgina manmanlikni ham ko`rishimiz mumkin. Keyin esa u Shahzoda bilan yaqindan tanishib oladi. Shahzodaning uning vositachiligida qilgan yaxshiligi qaldirg`ochning qalbiga iliqlik baxsh etgan edi. Ma`lumki, ko`plab qushlar qish kelganida sovuqqa bardoshsizligi tufayli issiq o`lkalarga uchib ketadi. Qaldirg`och esa hali ham shu yerda qolib ketgandi va uning sovuqqa chidashi qiyin bo`layotgandi. Uning qilgan yaxshiligi esa unga harorat bag`ishladi:

“– Qizig`i shundaki, – dedi u so`zining oxirida, – ayozligiga qaramay, endi sovqotmayapman.

– Chunki sen savobli ish qilding-da! – deb tushuntirdi unga Shahzoda”.

¹ Oskar Uayld. “Baxtli shahzoda. Ingliz ertaklari”, - “Namangan”, 2011-B:85

Shu voqeadan so`ng qaldirg`och Misrga ketishga qaror qiladi. Biroq uning qalbida uyg`ongan yaxshilik qilishga bo`lgan ishtiyoq sabab u Shahzodaning keyingi iltimoslarini ham rad qilolmaydi. Baxtli Shahzodaning qalbidagi ezgulik esa uni doim yaxshilik qilishga undardi. U bu uchun ko`zlaridan, o`zidagi jamiki qimmatbaho narsalardan osonlikcha kecha olardi. Qaldirg`ochning unga achinib to`kkan ko`zyoshlari hech ham kor qilmasdi. Mening fikrimcha, Baxtli Shahzoda odamlarga yordam bera olgani uchun ham baxtli edi. U o`sha chevar va uning farzandini, yosh nochor yigitni, bechora gugurttufurush qizni va qorinlari och qolgan bir qancha bolalarni baxtli qila olgani uchun ham baxtli edi. Biroq ko`p o`tmay qaldirg`ochning umri yakun topadi. U ezgulik yo`lida qurbon bo`lgan edi. U ko`zlaridan ayrilgan haykal do`stini yolg`iz qoldirmaslik uchun ham ketmagan edi. Uning o`limiga chidolmagan haykalning esa qalaydan yasalgan bo`lsa ham yuragi ikkiga bo`linib ketdi.

Ertakdagi ba`zi obrazlar orqali jamiyat ham qoralangan. Masalan, ertak boshida “o`zini g`oyat omilkor deb biladigan” Shahar Maslahatchisi o`zining gap so`zlari bilan tezda o`quvchining e`tiborini tortadi, biroq u avvaliga biroz mavhumligicha qoladi. Asar so`ngida esa ijodkor maslahatchi va hokimga yana bir bor murojaat qilganida biz bu obrazni nima uchun qo`shganini to`liq anglab yetamiz va bu bilan ilgari surmoqchi bo`lgan g`oyasi ham bizga to`laligicha ayon bo`ladi. Hech qanday qimmatbaho toshlarsiz qolgan haykal qora rangga kiradi. Aslida, yuragi parchalangandan so`ng uning tanasini tark etgan ruhi haykalning jozibasini yo`qotgan edi. Endi hech kimga qizig`i qolmagan haykal shahar hokimi tomonidan olib tashlanadi. Shu joyda amaldorlar qattiq tanqid ostiga olingan:

“– Undan yangi haykal yasash lozim va u, albatta, mening haykalim bo`lishi kerak! – deb taklif kiritdi Hokim.” va yana:

“– Oyog`ining ostida esa qandaydir o`lgan qush yotibdi, – so`zida davom etdi Hokim. – Darhol qushlarning bu yerda o`lishlari qat`iyan man qilinadi, degan qaror chiqarishimiz lozim”. Bunday ahmoqona qonunlar, albatta, hokimning salohiyatini baholab beradi. Tashqi go`zallik, yuzakilik, dabdaba u uchun juda ahamiyatli, boshqa holat uni qiziqitirmaydi. U va unga o`xshash maslahatchilarning beparvoligi, mas`uliyatsizligi oqibatida xalqning ahvoli ayanchli holga kelgan edi. Shu bilan birga hokimning har bir gapiga so`zsiz itoat qiladigan va umuman shaxsiy fikrga ega bo`lmagan shahar maslahatchilarining hokimning “mening haykalim bo`ladi”degan gaplarini xuddi o`ziday takrorlashlari va bundan oralarida janjal chiqishi bilan amaldorlarning ish-faoliyati achchiq kulgi ostida tanqid qilinadi. Nafaqat amaldorlar, balki “Estetika Professori”ning: “U endi go`zallikdan butunlay mahrum!”- degan gapi timsolida hatto ilm ulashuvchi professorlarning o`zlari ham go`zallikdan mahrum ekanligi bilan butun jamiyatdagi insonlarning sof tuyg`ularni anglash va his qilishga bo`lgan muhtojligi ochib berilgan.

Ertakning eng ta`sirli joyi oxiri deb ayta olamiz. Eskirgan haykalni eritib

yangisini yasamoqchi bo`lisharkan undagi singan qalayni erita olishmaydi. Natijada uni keraksiz buyum hisoblab chiqindiga, o`lik qaldirg`ochning jasaki yoniga uloqtirishadi. Ha, balki, insonlar orasida mana shunday ezgulik va insoniylik bilan sug`orilgan qalblar chiqindiga tengdir, ammo ularning hayotda qilgan yaxshiliklari, savob amallari uchun Xudoning oldida maqomi balanddir.

Mansab, boylik, shuhrat, o`yin-kulgu baxt bo`la olmasligi, bulardan Shahzoda ham haqiqiy baxtni topa olmaganligi, baxt aslida o`zingdagi eng sara narsalarni boshqalar bilan bo`lishish, insonlarning og`irini yengil qilishga imkoniyating bo`lishida ekanligini “Baxtli Shahzoda” asari orqali anglab yetishimiz mumkin. Bir qarashdan sodda, an’anaviy ertaklarga o`xshab ko`rinadigan shu qisqa ertakka shuncha ma’no sig`dira olgani uchun yozuvchiga qoyil qolmasdan iloj yo`q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oskar Uayld. “Baxtli shahzoda. Ingliz ertaklari”,- “Namangan”, 2011
2. Hacer Aktas. “Mutlu Prens”,- <https://www.izedebiyat.com/>, 30-Haziran, 2011